

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 12 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARINING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshiboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

DEVELOPING TEACHERS' COMMUNICATION COMPETENCE IN THE EDUCATION SYSTEM

Kuvatova Nozima Bakhtiyorovna

Acting Associate Professor (PhD), Department of Social Sciences,
Tashkent University of Economics and Technologies

E-mail: oripova1984@list.ru

Abstract. The article analyzes the theoretical foundations of developing a teacher's communicative competence, its role in the educational process, and its relevance. It emphasizes that communicative competence encompasses a teacher's ability to organize learner-centered instruction, establish effective interaction with students, create a psychologically safe environment, and manage interpersonal relations. The article also highlights the role of higher education institutions in fostering this competence among prospective teachers, the qualities that shape communication culture, and the specific features of professional-pedagogical communication. Furthermore, it provides a scientific justification for the necessity of democratic and humanistic communication principles, empathy, reflection, and the creation of a positive psychological climate.

Keywords: teacher, communicative competence, communication, interpersonal relations, pedagogical mastery, empathy, intercultural communication, psychological readiness.

TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Kuvatova Nozima Baxtiyorovna

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası v.b. dotsenti

Annotatsiya. Maqolada pedagogning kommunikativ kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va dolzarbligi tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetentlik o'qituvchining shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, psixologik xavfsiz muhit yaratish hamda shaxslararo munosabatlarni boshqarish qobiliyatlarini o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda ushbu kompetensiyani rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining roli, muloqot madaniyatini tarkib toptiruvchi fazilatlar hamda kasbiy-pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Maqolada demokratik va gumanistik muloqot tamoyillari, empatiya, refleksiya, ijobiy psixologik muhit yaratish zarurati ilmiy asosda ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagog, kommunikativ kompetensiya, muloqot, shaxslararo munosabat, pedagogik mahorat, empatiya, madaniyatlararo muloqot, psixologik tayyorgarlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N89>

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar kengayishi va ta'lim muhitining yangilanishi o'qituvchining yuqori darajadagi kommunikativ savodxonlikni, o'quvchi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni hamda madaniy, psixologik va ijtimoiy sezgirlikni talab qiladi. O'qituvchining muloqot kompetensiyasi o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, har xil nizoli vaziyatlarni ijobiyi hal qilish, motivatsiyani oshirish va foydali psixologik muhit yaratishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Inson faoliyati jarayonida muloqotsiz yashashi yoki ishlashi mumkin emas. Do'stlar, turmush o'rtoq, hamkorlar bilan kundalik munosabatlardan tortib, kasbiy sohaga oid fikr, g'oya va his-tuyg'ular almashinuvigacha bo'lgan barcha jarayonlar turli kommunikativ kontekstlarda uzluksiz davom etadi.

Kommunikatsiyani axborot almashinuvi jarayoni sifatida talqin qilganda, u axborot yuboruvchi va axborot qabul qiluvchi o'rtasida kechadigan murakkab o'zaro ta'sir tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonning samaradorligi bir qator ilmiy asoslangan shart-sharoitlar bajarilishini talab qiladi.

Birinchidan, axborot yuboruvchi uzatmoqchi bo'lgan mazmun — ya'ni g'oya, tasavvur yoki hissiy kechinmalarning mazmun-mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur. Shundan so'ng u ushbu mazmunni ifodalashning tegishli shaklini tanlaydi. Odatda mazmun til birliklari orqali kodlanadi, ya'ni fikr tilning grammatik va sintaktik qoidalariga muvofiq ravishda so'z shakliga keltiriladi. Bunda nafaqat verbal komponentlar (so'zlar, gaplar), balki paralingvistik vositalar — ovoz ohangi, nutq tezligi, pauzalar, shuningdek, noverbal belgilar — imo-ishora, tana harakati, mimika kabi elementlar ham axborot uzatishda muhim determinator sifatida ishtirok etadi.

Ikkinchidan, axborot qabul qiluvchi yuborilgan signallarni idrok etish, ularning semantik mazmunini qayta ishlash va o'zining kognitiv tajribasi asosida ular uchun ma'no hosil qilishi lozim. Qabul qiluvchi ushbu jarayon asosida yuboruvchining murojaatiga tegishli javob reaksiyasini shakllantiradi.

Shu tariqa, kommunikatsiya ikki tomonlama faol jarayon bo'lib, unda mazmunning kodlanishi, uzatilishi, idrok qilinishi va qayta kodlanishi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlar sifatida qaraladi.

Insoniy kommunikatsiya bo'yicha o'tkazilgan asosiy tadqiqot natijalaridan biri shundan iboratki, har qanday muloqot hech qachon faqat so'zlar va ularning mazmunidan iborat bo'lmaydi. Shu sababli, paralingvistik hodisalar deb ataluvchi so'zsiz ifoda vositalari ham mavjud bo'lib, ularga ohang, tana tili, imo-ishora, mimika kiradi.

Ko'pincha pedagogik muloqot jarayonida munosabat xarakteri aynan mana shu so'zsiz signallar (ohangdagi o'zgarishlar, tana harakatlari va h.k.) orqali ifodalanadi. Qiziq jihati shundaki, axborotning so'zli va so'zsiz qismlarga taqsimlanishi quyidagicha:

- 7% umumiy axborot faqat so'zlar va ularning mazmuni orqali yetkaziladi;
- 38% axborot ovoz va uning sifatlari (intonatsiya, nutq tezligi, baland-pastligi) orqali ifodalanadi;
- 55% axborot esa tana tili fenomenlari (imo-ishora, tana harakati, yuz ifodalari, o'tirish-turish holati) orqali yetkaziladi.

O'quv jarayonida bu jihat juda katta ahamiyatga ega[7].

Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchining muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasi nafaqat pedagogika nazariyasi, balki amaliy ta'lim jarayonining ham dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada ushbu kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uni rivojlantirish omillari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Pedagogning kommunikativ kompetentligini shakllantirishning dolzarbligi tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan dunyo voqealari va sharoitlari bilan belgilanadi. Ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagog yetarli darajada kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kommunikativ texnologiyalarni amalga oshira bilishi hamda

ta'lim-tarbiya jarayonini moslashuvchan boshqara olishi zarur. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasiga bog'liq holda muloqotning demokratik va gumanistik xususiyati, kontaktlar o'rnatishdagi samaradorlik, o'qituvchi va o'quvchilarning o'z mehnatidan qoniqishi, shuningdek, ta'lim muassasasidagi ma'naviy-psixologik muhit shakllanadi.

Muhokama. O'qituvchining muloqot kompetensiyasini shakllantirish — bu uzluksiz jarayon bo'lib, u og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishni, ijobiy muhit yaratishni, hissiyotlarni boshqarishni, o'quvchilar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali dialog o'rnatishni o'z ichiga oladi. Buning uchun an'anaviy usullar (refleksiya, treninglar) bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi. Ularning integratsiyasi samarali madaniyatlararo muloqot uchun qulay sharoit yaratadi.

Samimiy, iliq va do'stona munosabatlarni rivojlantirishga har bir pedagog o'quvchilar bilan ishlash jarayonida intilishi zarur. Ushbu maqolda biz samarali muloqotni yo'lga qo'yishga yordam beradigan o'qituvchining quyidagi ijobiy fazilatlarini ko'rsatamiz:

- o'quvchilar bilan muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj va istak;
- ijobiy hissiy kayfiyat;
- muloqot jarayonidan o'zaro qoniqish;
- o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish qobiliyati;
- shaxslararo ziddiyatlarni samarali hal etish mahorati;
- suhbatdoshning fikrini hurmat qilish, o'z fikrini majburlab yuklamaslik.

O'qituvchining eng asosiy fazilati — bu o'quvchilarga bo'lgan mehrdir. Mehr orqali o'qituvchi o'quvchilarning insonparvar, adolatli, befarq bo'lmagan, mustaqil fikrlay oladigan shaxslar bo'lib shakllanishiga hissa qo'shadi.

Pedagogik faoliyatning mohiyati o'qituvchining bolalar bilan muloqotidir. Shu sababli pedagogning kommunikativ kompetentligini ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, Markova N.G., "o'qituvchining kasbiy mahorati markazi" deb ataydi. Kommunikativ kompetentlik shaxsda quyidagi fazilatlarining mavjudligini nazarda tutadi: qiziquvchanlik, aqliy chaqqonlik, hissiy ochiqlik, empatiya, o'zini tahlil qila bilish (refleksiya), pedagogik tajribani real vaziyatlarda qo'llash, kasbiy yo'lini ongli anglashi[3]. Ushbu fazilatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilar bilan samarali muloqot uchun qulay hissiy muhit yaratishga qodir bo'ladi.

Shubhasiz, bo'lajak pedagoglarda kommunikativ kompetentligini shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri — oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan nazariy tayyorgarlikdir. Bu jarayon talabada kelajak kasbining mazmuni va ahamiyatini anglashni shakllantiradi. Psixologik tayyorgarlik ham muhim bo'lib, shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash, shaxslararo muloqotni yo'lga qo'yish, hissiy intellektni rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Yaratilgan qulay muhit, ochiq muloqot maydoni, munozara va suhbatlar bo'lajak pedagogning o'zini erkin tutishiga, fikr va hissiyotlarini ochiq ifoda etishiga, tanqid va bahodan qo'rqmasdan muloqot qilishiga yordam beradi.

Pedagogning ijodiy vazifasi — kasbiy-pedagogik muloqot ko'nikmalarini egallashdir. Shu bois bo'lajak o'qituvchi o'zining individual uslubini shakllantirishga intilishi lozim. Bu uning kasbiy rivojlanishiga va o'quvchilar bilan samarali munosabat o'rnatishiga xizmat qiladi.

Natijalar. Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish zarurati pedagogning kasbiy standartlari bilan belgilanadi. Mazkur standartlarda o'qituvchining kasbiy faoliyatida kommunikativ kompetentlikning mazmuni yoritilgan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– o'quvchilar bilan konstruktiv muloqot olib borish, ularning qadr-qimmatini hurmat qilish va ularni teng huquqli hamkor sifatida qabul qilish; – yangilangan ta'lim muhitida o'quvchilarda bag'rikenglikni va ijtimoiy xulq ko'nikmalarini tizimli shakllantirish; – mojaroli yoki mojaroga yaqin holatda qolgan bolalarni himoya qilish, ularning manfaatlari va sha'nini himoyalash, xavfsiz psixologik muhit yaratish.

Demak, kommunikativ kompetentlikning rivojlanishi pedagog faoliyatida insonparvarlik, madaniyatlararo bag'rikenglik va ijtimoiy himoya tamoyillarining amaliy ifodasini ta'minlaydi.

Pedagogik munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi qator kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur:

Kelajakdagi o'zaro munosabatni oldindan tasavvur qilish. O'qituvchi dars jarayonida qanday muloqot uslubidan foydalanishini, o'quvchilar bilan qanday aloqa shakllanishini oldindan rejalashi lozim.

Sinf jamoasining psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini bilish. Har bir sinfning o'ziga xos muhiti, faol va sust ishtirokchilari, yetakchilari, alohida ehtiyojga ega o'quvchilari bo'ladi. Ularni oldindan tahlil qilish muloqotni samaraliroq qiladi.

Samimiy va hamkorlikka yo'naltirilgan munosabat. O'quvchining fikriga hurmat, ishonch va ochiq muloqot — samarali darsning asosidir.

Oqilona yetakchilik. O'qituvchi jamoadagi tabiiy lider bo'lib, boshqaruv uslubi avtoritar emas, balki demokratik bo'lishi zarur. Adolatli va tinglay oladigan o'qituvchi sinfda sog'lom munosabatni shakllantira oladi[4].

Umuman olganda, pedagogik munosabat o'qituvchidan bilim va malakadan tashqari psixologik sezgirlik, kommunikativ madaniyat va shaxsiy namuna bo'la olish kabi fazilatlarni talab etadi. Ana shundagina o'qituvchi-o'quvchi o'rtasida sog'lom muhit shakllanib, ta'lim jarayoni yuqori samaraga erishadi.

Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- O'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- Munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- Bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- Munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- Munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim[5].

Xulosa. O'qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining muloqot ko'nikmalari uning shaxsiy fazilatlari, psixologik tayyorgarligi va kasbiy madaniyatining integrativ mahsuli sifatida shakllanadi. Demokratik muloqot, o'quvchining qadr-qimmatini hurmat qilish, empatiya, hissiy barqarorlik va shaxslararo muammolarni konstruktiv hal etish pedagogik muvaffaqiyatning muhim ko'rsatkichlaridir. Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish esa nazariy bilimlar, refleksiv faoliyat, amaliy mashg'ulotlar hamda madaniyatlararo muloqot tajribasining uyg'unlashuvini talab qiladi. Shu bois pedagogik ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv zamonaviy ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2016 yil.

2. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3. Маркова Н.Г., Ишимова А.И. Формирование коммуникативной компетентности будущего педагога как индикатора успешной профессиональной деятельности // Самарский научный вестник. Т.11, №2. – 296–301, 2022.
4. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A. va boshq. *Umumiy pedagogika* (1 qism). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
5. Mavlonova R.A., Raxmonqulova N.H. va boshq. *Umumiy pedagogika* Darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020, 528b.
6. Xodjaev B.X. *Umumiy pedagogika* Darslik.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017 yil, 416b.
7. Schmid-Oumard V.; Shroeder V. *Kommunikation im pädagogischen Alltag: Modelle, Methoden, Techniken* – Shtutgart: Institut für berufsbezogene Bildung und Weiterbildung, Germaniya Federal 2005. – 100b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).